

Bizning Vatan

Orif To'xtash



Orif To'xtash
1976

Orif To'xtash – 1976-yilda Samarqand viloyati Ishtixon tumanida tug'ilgan. Uning shu kunga qadar "G'unchalar tabassumi", "Quyosh yo'li", "Ko'ngilga tashrif", "Ajabtovur arnomalar", "Baxtiyor bolalik" kabi she'riy to'plamlari nashr qilingan.

Orif To'xtash 2021-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan.



O'qing.

Serquyosh bu Vatanning
Baxtli o'g'il-qizimiz.
Yurak zarbiga mosdir
Har bir qadam – izimiz.

Bunday g'amxo'r Vatanni
Ona yurt, deb sharhlaymiz.
Ajdodlar zakosida*
Aqlimizni charxlaymiz.

Osmono'par tog'lardan
Oqib kelar ziloling*.
O'n kundayoq ko'zini
Katta ochar hiloling*.

Mehrga kon bag'ringda
 Gulga kirmas giyoh yo'q.
 Seni shodon kuylashdan
 Boshqa hech ishtiyoq yo'q!

Baxtimiz so'rar bunda
 Har ota, har onajon.
 Toabad* gulla, yashna,
 O'zbekiston – jonajon!



zako – donolik
zilol – (bu yerda) tiniq suv
hilol – yangi chiqqan oy
toabad – hamisha, umrbod



1. She'ning asosiy g'oyasini aniqlang.
2. Shoir o'z Vatanini qanday tarannum etgan?
3. Bunday g'amxo'r Vatanni so'zlari bilan boshlanuvchi misralarni o'qing. Muallif nima demoqchi?
4. Vatan so'zi siz uchun nimani anglatadi?



She'r – qofiyalangan satrlardan tashkil topgan badiiy asar.

Qofiya – she'r satrlari oxiridagi ohangdosh, o'xshash tovushli so'z.

Masalan: *kitob* – *oftob*, *bahor* – *nahor*.



She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning.

